

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA SIFATLI TA'LIM OLISH IMKONINI YARATISHDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI MODELLASHTIRISHMODE

ЛИРОВАНИЕ РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

MODELING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT IN PROVIDING QUALITY EDUCATION FOR CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

SABIROVA ZEBO ILXAMJANOVNA

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti Logopediya
kafedrası dotsent v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim berishda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Inklyuziv ta'lim tizimida bolalarning psixofizik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olish, bilish faolligi hamda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maktabga tayyorlashda korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvning ahamiyati ko'rsatilib, metodik va tashkiliy muammolarni bartaraf etish hamda individual dasturlarni joriy etish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: alohida ta'lim ehtiyojlari, inklyuziv ta'lim, rivojlantiruvchi muhit, korreksion-pedagogik yondashuv, nutq rivojlanishi, ta'lim texnologiyalari, ijtimoiy moslashuv, maxsus pedagogika, logopediya.

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические и практические основы моделирования развивающей среды для обеспечения качественного образования детей с особыми образовательными потребностями. Анализируются вопросы учета психофизических и когнитивных особенностей детей, активизации их познавательной деятельности и развития речевой компетентности в системе инклюзивного образования. Обоснована важность коррекционно-развивающего подхода при подготовке к школе, а также необходимость решения методических проблем и внедрения индивидуальных программ.

Ключевые слова: особые образовательные потребности, инклюзивное образование, развивающая среда, коррекционно-педагогический подход, развитие речи, образовательные технологии, социальная адаптация, специальная педагогика, логопедия.

Abstract. This article highlights the theoretical and practical foundations of modeling a developmental environment to provide quality education for children with special educational needs. It analyzes methods for considering children's psychophysical and cognitive characteristics, stimulating cognitive activity, and developing speech competence within inclusive education. The importance of a correctional-developmental approach in school preparation is demonstrated, substantiating the need to address methodological challenges and implement individualized programs.

Keywords: special educational needs, inclusive education, developmental environment, correctional-pedagogical approach, speech development, educational technologies, social adaptation, special pedagogy, logopedics.

Kirish

Jahon ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bolalarni maktabga nutqiy tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, bolalarning bilish, nutq qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaning morfologik, funksional va aqliy rivojlanish darajasini oshirish, nutqiy vaziyatga mos yangi tushunchalarni yaratish, nutqiy tayyorgarlikning kognitiv komponentlarini kuchaytirishga doir amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimida yangi ishlash texnologiyalari, usullari va shakllari ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlari, o'ziga xos imkoniyatlari va sog'lig'i holatidan kelib chiqqan holda ish usullarini yaratish yo'llarini izlashga faol kirishildi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida bolalarga maxsus ta'lim va davlat yordamining ichki tizimini rivojlantirishdagi o'tish davrining strategiyasi va taktikasi ta'limning yangi mazmunini loyihalashga qaratilgan.

Hozirgi kunda rivojlanishida jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoya qilish — hayot faoliyatiga doir cheklovlarni yengib o'tish, ularning o'rnini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun shart-sharoitlarni yaratish va ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ko'p funksional inklyuziv-resurs maktablari kerakligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan

bolalarni rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash hamda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish masalalari bugungi kunda maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning psixik, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishi ko'p jihatdan ta'lim muhiti, korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir hamda pedagogik yondashuvlarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir.

L.S. Vigotskiy o'zining ilmiy qarashlarida nuqsonli rivojlanishning murakkab tuzilishini asoslab bergan bo'lib, birlamchi nuqson natijasida ikkilamchi buzilishlarning shakllanishini ilmiy jihatdan izohlab beradi. Olimning fikricha, bolaning rivojlanishidagi mavjud nuqson faqat bir funksiyaning buzilishi bilan cheklanmaydi, balki butun psixik rivojlanish tizimiga ta'sir ko'rsatadi [6, 112-b]. Shu sababli rivojlantiruvchi ta'lim muhiti bolaning mavjud imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qilishi lozim. Vigotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi orqali bolaning mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar yoki mutaxassis yordamida amalga oshira oladigan faoliyati rivojlanishning asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi [7, 24-b]. Mazkur yondashuv hozirgi inklyuziv ta'lim tizimining metodologik asosini tashkil etadi.

A.V. Zaporozets va L.A. Vengerlarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari, sensor rivojlanishi hamda faoliyat orqali o'qitish masalalari keng yoritilgan. Ularning fikricha, rivojlantiruvchi muhit bolada mustaqil fikrlash, analiz va sintez qilish, nutqiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalarda predmetli-amaliy faoliyatni tashkil etish orqali idrok va tafakkur rivojlanishi jadallashadi [4, 37-b].

R.E. Levina nutq nuqsoniga ega

bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etib, nutqdagi buzilishlar bolaning bilish faoliyati va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Olim nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda kompleks korreksion-pedagogik yondashuv zarurligini alohida qayd etgan [5, 9-b]. Shuningdek, I.Yu. Levchenko va U.V. Ulenkova tomonidan ishlab chiqilgan darajali yondashuv alohida ehtiyojga ega bolalarning individual imkoniyatlarini aniqlash hamda ularga mos korreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [5, 11-b].

T.A.Basilova va N.A. Aleksandrova rivojlanishida murakkab buzilish mavjud bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida ota-ona, pedagog va mutaxassislarning hamkorligi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Mualliflarning fikricha, korreksion-rivojlantiruvchi muhit bolaning psixik faoliyatini faollashtirish, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi [4, 56-b].

N.N.Malofeev, Ye.L.Goncharova, O.I.Kukushkina va O.S. Nikolskaya tomonidan ishlab chiqilgan maxsus ta'lim standarti konsepsiyasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limning differensial va individual modeli asoslab berilgan. Tadqiqotchilar maxsus ta'lim tizimida bolaning individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish, moslashtirilgan dasturlar va maxsus metodikalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi [5, 6-b]. Bu yondashuv inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning muhim pedagogik sharti sifatida talqin etiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar N.Steen, R.Berg, M.M.Hodge, V.F.Morgan, K.Nishivaki va D.Raylarning ilmiy izlanishlarida

rivojlanishida nuqson mavjud bolalarning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash masalalari o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida erta korreksion yordam, oilaviy muhit va interaktiv ta'lim texnologiyalarining samaradorligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Olimlarning fikricha, rivojlantiruvchi muhitning multimodal tashkil etilishi bolaning kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham mazkur yo'nalishda muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Z.I.Sabirova tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda maktabgacha yoshdagi og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korreksion-rivojlantiruvchi muhitning to'g'ri tashkil etilishi bolalarda nutqiy tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy moslashuv darajasining oshishiga xizmat qiladi [8, 158-b]. Shuningdek, muallifning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqliy rivojlanishi sust bolalarni maktabga tayyorlash modeli haqidagi ilmiy maqolasida individual yondashuv va integratsiyalashgan pedagogik texnologiyalar samarali natija berishi asoslangan [9, 726-b].

O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim berish masalasiga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Xususan, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish" to'g'risidagi qaror hamda "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim muhitini tashkil etish vazifalari belgilangan [1], [2].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, rivojlantiruvchi muhitni

modellashtirish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqiy, psixik va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, korreksion-pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, individual dasturlarni ishlab chiqish va mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurati mavjud.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirishning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik hamda diagnostik metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini L.S. Vigotskiy, A.V. Zaporozets, R.E. Levina, T.A. Basilova, N.N. Malofeev va boshqa olimlarning inklyuziv hamda korreksion pedagogika bo'yicha ilmiy qarashlari tashkil etdi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari o'rganildi.

Empirik bosqichda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat, pedagogik diagnostika hamda psixologik-pedagogik monitoring metodlaridan foydalanildi. Bolalarning individual imkoniyatlari, bilish faoliyati va kommunikativ ko'nikmalarini baholash asosida korreksion-rivojlantiruvchi ishlar mazmuni belgilandi.

Tadqiqot davomida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini modellashtirishda shaxsga yo'naltirilgan, differensial va integratsion yondashuvlarga tayanildi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda

individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar joriy etildi. Olingan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilinib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning rivojlanish dinamikasi baholandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Tadqiqot jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirishning samaradorligi tahlil qilindi hamda korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlarning bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri aniqlandi. O'tkazilgan kuzatuvlar, diagnostik tahlillar va amaliy mashg'ulotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, maxsus tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhit bolalarning nutqiy, kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda sensor rivojlantirish, kommunikativ faoliyatni qo'llab-quvvatlash, individual va guruhli mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar hamda vizual vositalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada bolalarda nutqiy faollikning ortishi, lug'at boyligining kengayishi, grammatik tuzilmalardan foydalanish ko'nikmalarining yaxshilanishi kuzatildi. Ayniqsa, og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda tovush talaffuzi, bog'lanishli nutq va muloqotga kirishish qobiliyatining rivojlanishi ijobiy natijalarni ko'rsatdi.

Shuningdek, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar davomida bolalarning bilish jarayonlarida ham muhim o'zgarishlar qayd etildi. Xususan, diqqatning barqarorlashuvi, xotira hajmining oshishi, predmet va hodisalarni taqqoslash, umumlashtirish hamda tahlil qilish kabi tafakkur operatsiyalarining rivojlanganligi aniqlandi. Rivojlantiruvchi

muhitda tashkil etilgan o'yinli faoliyat va amaliy topshiriqlar bolalarda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishiga yordam berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar bolalarning psixofizik imkoniyatlarini hisobga olishga hamda ularning rivojlanish dinamikasini muntazam nazorat qilishga imkon yaratadi. Bunday yondashuv orqali har bir bolaning ehtiyoji, qobiliyati va rivojlanish darajasiga mos ta'lim muhiti tashkil etildi. Bu esa o'z navbatida bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchning ortishi, ijtimoiy moslashuvning yaxshilanishi va ta'lim faoliyatiga qiziqishning kuchayishiga olib keldi.

Amaliy kuzatishlar davomida ota-onalar va mutaxassislar hamkorligining samarali yo'lga qo'yilishi ham muhim natijalardan biri sifatida baholandi. Psixolog, logoped, defektolog va tarbiyachilar tomonidan olib borilgan kompleks ishlar bolalarning rivojlanishidagi mavjud muammolarni erta aniqlash va o'z vaqtida korreksion yordam ko'rsatish imkonini berdi. Ota-onalarning pedagogik jarayonga faol jalb etilishi esa uy sharoitida ham rivojlantiruvchi muhitni davom ettirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, inklyuziv va maxsus ta'lim muassasalarida rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratishi aniqlandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqiy va bilish faoliyatini faollashtirish;
- kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish;
- korreksion-rivojlantiruvchi ta'sirning uzluksizligini ta'minlash;
- bolalarning individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;

- ta'lim jarayonida mustaqillik va motivatsiyani shakllantirish.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim ta'lim muassasalarida maxsus metodik vositalarning yetarli emasligi, mutaxassislarning inklyuziv ta'lim bo'yicha amaliy kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurati hamda individual korreksion dasturlarni ishlab chiqishda yagona metodik tizimning to'liq shakllanmaganligi kuzatildi. Biroq olib borilgan tajriba-sinov ishlari rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlashning muhim omili ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, ularning jamiyatga integratsiyalashuvi va sifatli ta'lim olishiga xizmat qiluvchi samarali pedagogik tizim ekanligini ko'rsatdi.

Muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish masalalarida qator hal etilmagan muammolar mavjud. Zamonaviy maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimida ushbu toifadagi bolalarning individual imkoniyatlari, psixofizik rivojlanish darajasi hamda ta'lim ehtiyojlarini chuqur hisobga olgan holda ta'lim muhitini tashkil etish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, bolalarni kasbga yo'naltirish, mustaqil hayotga tayyorlash va ijtimoiy moslashtirish jarayonlarida yagona metodik tizimning to'liq shakllanmaganligi mazkur yo'nalishdagi ilmiy-amaliy izlanishlarni yanada kuchaytirishni talab etadi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha,

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro murakkab bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bir nechta birlamchi buzilishlarning birikmasi mavjud bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llaniladigan "murakkab buzilish", "mujassam buzilish", "bir necha buzilish" yoki "murakkab tuzilishdagi buzilish" kabi tushunchalarning ilmiy va amaliy jihatdan yagona izohga ega emasligi kuzatiladi. Bu esa amaliyotda diagnostika, pedagogik yondashuv va korreksion yordam ko'rsatishda turli xil talqinlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, bolalarning xarakterologik xususiyatlarini tizimli ravishda ochib berish hamda ularga ko'rsatiladigan psixologik-pedagogik yordam vazifalarini aniq belgilash muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining individual darajasini baholovchi mezon va ko'rsatkichlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ham muhim muammolardan biridir. Amaliyotda ko'plab bolalarda nutqiy buzilishlar bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy holat hamda ijtimoiy moslashuv bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu sababli faqat nutqiy kamchiliklarni emas, balki bolaning umumiy psixik rivojlanish dinamikasini ham kompleks baholash zarurati mavjud. Bu esa rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda yangi tashkiliy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Amaliyotda uchraydigan yana bir muhim masala — og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarning individual o'quv ehtiyojlarini to'liq qondirishga xizmat qiluvchi metodik va dasturiy ta'minotning yetarli emasligidir. Hozirgi vaqtda ayrim ta'lim muassasalarida korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni

olib borish uchun zamonaviy metodik qo'llanmalar, maxsus dasturlar va innovatsion texnologiyalarni yetishmaydi. Natijada bolaning rivojlanish imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ta'lim samaradorligini oshirishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, individual rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda bolaning psixofizik holati, nutqiy rivojlanishi va bilish faoliyatidagi o'ziga xosliklarni hisobga olish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, ilmiy-metodik ishlanmalarning mavjudligiga qaramay, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishning integratsiyalashgan yaxlit tizimi hali to'liq shakllanmagan. Aksariyat hollarda korreksion ta'sir alohida yo'nalishlarda amalga oshiriladi va bu jarayonda mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Vaholanki, bolaning bilish faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy muhim ko'nikmalarini shakllantirish va shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash uchun logoped, psixolog, defektolog, tarbiyachi va ota-onalarning o'zaro hamkorligi asosida yagona pedagogik tizimni tashkil etish zarur.

Yuqorida qayd etilgan muammolar og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlarini yanada chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalarning mavjud ichki resurslarini aniqlash, ularning ijtimoiy, ruhiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini baholash hamda ikki yoki undan ortiq birlamchi buzilishlar birikmasi mavjud bo'lgan bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan

bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish tizimini nazariy-uslubiy jihatdan takomillashtirish va uni amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ushbu toifadagi bolalarning rivojlanishidagi o'zgaruvchan xususiyatlarni inobatga olish, turli maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitida sinovdan o'tkazilgan samarali texnologiyalarni ishlab chiqish zarurdir. Ayniqsa, bolaning individual rivojlanish darajasini aniqlash va unga mos korreksion-rivojlantiruvchi muhit yaratish psixologik-pedagogik yordam samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar ilmiy asoslangan tizimga tayangan holdagina samarali natija beradi. Bunday tizim, avvalo, zamonaviy psixologik-pedagogik g'oyalar hamda alohida ehtiyojli bolalar rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlarini hisobga olishi lozim. Shu bilan birga, sensor, nutqiy, harakat va ruhiy kamchiliklarni hisobga olgan holda bolalarni kompleks psixologik o'rganish texnologiyalarini ishlab chiqish ham muhimdir.

Psixologik va pedagogik yordamning birligi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki psixokorreksion ishlarning asosiy maqsadi bolaning psixologik rivojlanish mexanizmlarini faollashtirish, pedagogik jarayon esa uning imkoniyatlariga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Shu sababli ta'lim jarayonini modellashtirishda shaxsga yo'naltirilgan va individual yondashuvlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari mavjud bolalarda turli kasalliklar kombinatsiyasining

o'zgaruvchanligi, ularning og'irlik darajasi va ruhiy dizontogenez xususiyatlarini hisobga olish asosida uzluksiz korreksion-rivojlantiruvchi ta'sirni tashkil etish zarur. Shu bilan birga, individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni ta'lim jarayoniga joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish bolaning umumiy rivojlanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyasi va mustaqil hayotga tayyorgarlik darajasi sezilarli ravishda yaxshilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishda rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish muhim pedagogik va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi bolaning psixofizik, nutqiy hamda individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim muhitini talab etadi. Shu jihatdan rivojlantiruvchi muhit bolaning bilish faoliyatini faollashtirish, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va mustaqil hayotga tayyorlashning samarali vositasi hisoblanadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, og'ir nutq nuqsoniga ega hamda rivojlanishida murakkab buzilishlar mavjud bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishda hali ham qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, diagnostik mezonlarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi, korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni yaratishdagi metodik muammolar, mutaxassislar hamkorligining to'liq tizimlashtirilmaganligi hamda individual yondashuvni ta'minlashdagi kamchiliklar mazkur yo'nalishda ilmiy-amaliy izlanishlarni yanada takomillashtirish

zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rivojlantiruvchi muhitni modellashtirish asosida tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlar bolalarning nutqiy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida ijobiy natijalarni yuzaga keltirishi aniqlandi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, individual korreksion dasturlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda psixologik-pedagogik yordamning integratsiyalashgan tizimi bolalarning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonda maxsus va inklyuziv ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida xalqaro tajriba va milliy

qadriyatlarga tayangan holda "hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydigan" ta'lim muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi, sifatli ta'lim olishi va kelajakda mustaqil hayotga moslashuvi uchun muhim shart-sharoitlarni yaratadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni takomillashtirish, maxsus metodik dasturlar yaratish, mutaxassislar malakasini oshirish hamda ta'lim jarayoniga raqamli va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib qoladi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 818-son qaroriga "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish, ularni jamiyatga integratsiya qilish va individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining o'quv dasturi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
4. Basilova T.A., Aleksandrova N.A. Как помочь малышу со сложным нарушением развития: Пособие для родителей / Т.А.Басилова, Н.А. Александрова. - М., 2008. -112с
5. Малофеев Н.Н., Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И., Николская О.С. Специальный федеральный государственный стандарт общего образования детей с ограниченными возможностями здоровья: Основные положения концепции. - М., 2002. — 13 с
6. Выготский Л.С. Проблемы общей психологии // Собр. соч.: В 6 т. -М., 1982. Т. 2.-504 с.
7. Выготский Л.С. Основные проблемы современной дефектологии // Психология детей с отклонениями и нарушениями психического развития / Сост. и общ. Ред. В.М. Астапова, И.В. Микадзе. - СПб., 2002. С. 10 - 47.
8. Sabirova Z.I. Maktabgacha yoshdagi og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarni maktab ta'limiga tayyorligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent: O'z MG Jamoat xavfsizligi universiteti - 2022-yil 20-may // Б. 153-162 8.
9. Sabirova Z.I. Model of preparing children with delayed mental development to school in conditions of preschool educational institutions. //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> Февраль 2021 йил 10.5958/2249-7137.2021.00403.1// Б.724-730. (Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492)